

7-mavzu: "Kuz" she'ri (Muhammad Yusuf)

Darsning maqsadi:

- a) ta'limiy:** o`quvchilarni she'r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish,she'rni ifodali o`qishni o`rgatish.
- b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga tabiatni asrashni,uning boyliklaridan oqilona foydalanishni o`rgatish, o`quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
- c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

II.O`tilganlarni mustahkamlash.

O`tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o`tkazib, o`quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi. O`quvchilar rag`batlantiriladi.

III.Yangi mavzu bayoni.

Kuz fasli haqidagi suhbat bilan bugungi mavzu e'lon qilinadi:"Kuz" she'ri. She'r muallifi Muhammad Yusuf haqida ma'lumot beriladi. Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

Lug`at ishi:

Sunbula - 12 ta yulduz turkumidan biri bo`lib, sentabr oyiga to`g`ri keladi

Barqut - mato turi (yumshoq,mayin)

G`ulg`ula - xavotir

"Kuz" she'ri o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

Savollar:

- 1.Shoir kuzni qanday tasvirlamoqda?
- 2.Kuzda tabiatda qanday o`zgarishlar bo`ladi?
- 3."*Suv o`tlari to`la irmoqni Muzdek qilib qo`ydi sunbula*" misralarini qanday tushundingiz?
- 4.Turnalarning ko`kda arg`imchoq solib uchishini kuzatganmisiz? Ular qanday ko`rinishda bo`ladi?

"Tinglang!" O`quvchilar musiqani tinglab, darslikda berilgan savollarga javob beradilar.

Mashq daftар bilan ishslash.

1-topshiriq. Savollarga javob yozing.

- 1.Shoir kuzni qanday tasvirlamoqda?
2. Kuzda tabiatda qanday o`zgarishlar bo`ladi? Misollar keltiring.
3. "Suvo`tlari to`la irmoqni

Muzdek qilib qo`ydi sunbula" misralarini qanday tushundingiz?

O`quvchilar savollarga javob yozadilar.

2-topshiriq. Berilgan so`zlarni bo`g`inlarga bo`lib yozing.

1.Yaproqlarning – yap-roq-lar-ning

2.Yomg`irdan – yom-g`ir-dan

3.Nihollar – ni-hol-lar

4.Hosillari – ho-sil-la-ri

5.Iliqqina – i-liq-qi-na

3-topshiriq. “Ma’nodoshini top!” Berilgan so`zlarga ma’nodosh bo`lgan so`zlarni topib yozing.

mayin

yaproqlar

nihollar

yellar

ko`klam

Mayin – yoqimli, nihollar – ko`chatlar, yaproqlar – barglar, yellar – shamol, ko`klam – bahor.

4-topshiriq. Turnalarning ko`kda arg‘imchoq solib uchishini kuzatganmisiz?

Ular qanday ko`rinishda bo`ladi? Rasm ishlang.

O`quvchilar mustaqil ravishda rasm chizadilar.

V.Darsni yakunlash va o`quvchilarini baholash.

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish. She’rni yod oling.

8-mavzu: "Bir-birin kuzatar fasllar" she’ri (Po`lat Mo`min)

Darsning maqsadi:

a)ta’limiy: o`quvchilarni she’r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish,she’rni ifodali o`qishni o`rgatish.

b)tarbiyaviy: o`quvchilarga tabiatni asrashni,uning boyliklaridan oqilona foydalanishni o`rgatish, o`quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

c)rivojlantiruvchi: o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, ”Klaster“, ”Aqliy hujum“ metodi,”Kim hozirjavob“, ”Topib o`qi!“ ta’limiy o`yinlari.